unicef

har bir bola uchun

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

# MAVZU:

# BOSHLANG‘ICH TA’LIM METOD BIRLASHMALARI ISHINI SAMARALI TASHKIL ETISH SHAKL VA USULLARI

Samarqand VXTXQTMOHM
o‘qituvchisi Rabbonayeva D.T.

SAMARQAND-2021

“Umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari to‘g‘risida”gi Nizom

Xalq ta’limi vazirligining 2020-yil 13-avgustdagi 183-sonli buyrug‘i

# Ta’lim muassasasida uzluksiz metodik xizmatni asosini tashkil etuvchi bo‘g‘inlar:



# Ta’lim muassasasida uzluksiz metodik xizmatni asosini tashkil etuvchi bo‘g‘inlar:

**Pedagogika kengashi**

↕

**Metodika birlashmasi**

# “Umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari to‘g‘risida”gi Nizom

1. Umumiy qoidalar
2. Metodbirlashmaning asosiy maqsadi va vazifalari
3. Metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etish
4. Metodbirlashma rahbari va a’zolarining majburiyatlari
5. Metodbirlashmaning huquqlari
6. Metodbirlashma hujjatlari
7. Yakuniy qoidalar

# Metodbirlashmaning maqsadi:

o‘qituvchilarning kasbiy va metodik mahoratini hamda malakasini oshirish



o‘quvchilarga beriladigan ta’lim va tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishini ta’minlash borasida o‘zaro tajriba almashish

ijodkorlik yo‘nalishidagi izlanishlarni aniqlash, rivojlantirish va birlashtirish

o‘qituvchining darsi, tarbiyaviy soati, darsdan tashqari tadbirlariga qo‘yiladigan yagona talablarni ishlab chiqish va ta’lim-tarbiya jarayonida tatbiq etilishini taminlash

# Metodbirlashma faoliyati

**01**

Malaka oshirishga borayotgan o‘qituvchining shaxsiy malaka oshirish dasturini tuzishda ko‘maklashish

**02**

Eng mohir, tashabbuskor, ilg‘or o‘qituvchining ish tajribasi asosida ochiq darslar, seminarlar tashkil etish

**03**

Ilgor ish tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va ommalashtirish

**04**

Malaka oshirishdan qaytgan o‘qituvchiining hisobotini eshitish

# Metodbirlashma faoliyati

**05**

Birlashma a’zolari yaratgan dars ishlanmalari, metodik ma’ruzalar va metodik mahsulotlarni muhokama etish va baholash

**06**

Namunali va ochiq darslarni tashkil etish, kuzatish va tahlil qilish

**07**

O‘quv seminarlari, trening-o‘quvlar tashkil etish va qatnashish

**08**

“Ustoz – shogird” maktabini tashkil etish va uni nazorat qilish

# Metodbirlashma faoliyati

Fan oyliklarini tashkillashtirish, o‘tkazish, nazorat qilish




Fan to‘garaklarini tashkillashtirish, o‘tkazish, nazorat qilish

Sinf xonalarining jihozlanishiga taklif va tavsiyalar berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish

Fan olimpiadalariga o‘quvchilar ishtirokini ta’minlash uchun o‘qituvchilarga taklif va tavsiyalar berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish

# Metodbirlashma  faoliyati

Yosh, tajribasiz o‘qituvchilarga metodik yordam, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, nazorat qilish




Darslik va o‘quv qo‘llanmalarini qiyosiy tahlil qilish

Iqtidorli o‘quvchilar  bilan alohida, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan alohida ishlar tashkil qilish

# Metodbirlashma rahbarining majburiyatlari:

1. Metodbirlashma o‘tkazadigan kengashlarda, tadbirlarda faol qatnashish
2. DTS talablari doirasida o‘qitish sifatiga e’tibor berish
3. Metod kengashni reja asosida doimiy ravishda tashkillashtirib borish
4. Taqvim-mavzu rejalarining tuzilishi va bajarilishini nazorat qilish
5. Olib borilgan ishlar xususida pedagogika kengashida hisobot berish
6. Yosh o‘qituvchilarga metodik yordam uyushtirish

# Metodbirlashma a'zolarining majburiyatlari

1. Metodbirlashma o‘tkazadigan kengashlarda, tadbirlarda faol qatnashish

2. Namunali va ochiq darslarni tashkil etishi, kuzatish va tahlil qilishi

3. Pedagogik faoliyatida o‘z-o‘zini tahlil qilib borishi

4. Sinf xonalarini jihozlash tartib-qoidalarni bilishi va unga amal qilishi

5. Kasbiy mahoratini oshirishga intilishi, o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi

6. Pedagogning huquqiy-me’yoriy faoliyatini bilish va unga amal qilish

# Metodbirlashmaning huquqlari

01 O‘quv yuklamalar taqsimoti va qayta tarifikatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berish

02 O‘quv dasturiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish

03 Fan xonalari mas’ullariga qo‘shimcha haq to‘lash yuzasidan takliflar berish

04 Maxsus dasturlar, attestatsiya va yakuniy nazorat materiallarini tayyorlash

05 Fan yo‘nalishlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilimlar beradigan sinflar ochish bo‘yicha takliflar berish

# Metodik maslahat funksiyasi

1. Yosh, tajribasiz o‘qituvchilarga maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish
2. O‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish
3. Ilg‘or tajriba to‘g‘risida axborot berish
4. Yangi pedagogik adabiyotlar to‘g‘risida axborot berish
5. Metodbirlashma o‘tkazadigan kengashlarda, tadbirlarda faol qatnashish

# Metodbirlashma ishlarini tashkil etish va unga rahbarlik qilish

:odbirlashmalar - boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitta,
5-11-sinflarda esa alohida fanlar
bo‘yicha tashkil etiladi.
Agar u yoki bu fan bo‘yicha o‘qituvchilar soni uch nafardan
kam bo‘lsa, u holda ushbu fan
o‘qituvchilari shu turkumidagi
fan o‘qituvchilari bilan birgalikda bitta metod-birlashmaga birlashadilar

Maktabning har bir o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha metodbilrashmaga a’zo bo‘lishlari shart

Metodbirlashmaga rahbar
maktab pedagogika kengashi qaroriga asosan,
ijodkor va tajribali o‘qituvchilardan
maktab direktorining buyrig‘i bilan tayinlanadi

Metodbirlashma reja asosida ish yurutadi,
ish rejada belgilangan masalalar maktabning ish rejasida o‘z aksini topishi lozim

# Metodbirlashma ishlarini tashkil etish va unga rahbarlik qilish

O‘quv yili oxirida metodbirlashma faoliyatiga oid barcha hujjatlar direktorining o‘quv metodik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan tahlil qilinadi

- Metodbirlashma yig‘ilishi bir oyda kamida bir marta o‘tkaziladi
- Metodbirlashma turli mavzularda seminar -mashg‘ulotlar, ma’lum mavzularga bag‘ishlangan turkum ochiq darslarni tashkil qiladi
- Yig‘ilsh bayonlari daftari, birlashma ish rejasi va hisoboti maktabda 3 yil muddatda saqlanadi

# Metodbirlashma hujjatlari

01 Metodbirlashma a’zolari haqida ma’lumot

02 Yillik ish reja

03 Hisobotlar

04 Yig‘ilish bayonnomalari

05 Metodbirlashma faoliyatiga aloqador bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlar nusxasi

06 Yuqori tashkilotlardan kelib tushgan o‘quv-metodik hujjatlar nusxasi

# Metodbirlashma hujjatlari 6 tadan 3 taga qisqartirildi

01 Yig‘ilish bayonnomalari

02 Yillik ish reja

03 Hisobotlar

# “Ustoz-shogird” maktabi



Fanlar kesimida hududiy maktablardan eng ilg‘or, o‘z fanini chuqur egallagan tajribali ustoz-o‘qituvchilar aniqlanadi.

Yosh, iqtidorli, izlanuvchan, fidoyi 3 nafar shogird-o‘qituvchilar tanlab olinib, ular ustoz sifatida belgilangan tajribali o‘qituvchilarga biriktiriladi.





“Iste’dod” Respublika jamg‘armasi bilan hamkorlikda reja asosida davriy ravishda joylarda hududiy seminarlar tashkil etiladi. Seminarlar orqali kaskad usulida ilg‘or, fidoyi o‘qituvchilar malakasi oshiriladi.

Ustoz-o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatadigan maktabda “Kasbiy mahoratni oshirish ustaxonasi” tashkil etiladi.





Ustoz–o‘qituvchi ustaxonada:

- shogirdlarga “ochiq darslar” o‘tib ko‘rsatadi;
- shogirdlarining malakasini oshirishga qaratilgan rejalar tuzadi va uni amalga oshiradi;
-metodik yordam ko‘rsatishni tashkil etadi.

# “Ustoz-shogird” maktabi



Ustoz shogirdlari uchun oyning birinchi haftasida ochiq dars o‘tib beradi. Shogirdlar uning darsini kuzatib, o‘quv xonasini, u yerdagi me’yoriy hujjatlarning yuritilishini o‘rganadi.

Oyning qolgan 3 haftasida 3 nafar shogird o‘qituvchi navbatma-navbat o‘z maktablarida dars o‘tishadi. Ustoz va qolgan 2 nafar shogirdi, shogird-o‘qituvchinin g darslarini kuzatib tahlil qiladi, fikr-mulohazalarini bildiradi.





Oy so‘ngida ustoz-o‘qituvchi ustaxonasida darslar tahlillari muhokama qilinib, shogirdlarining yutuqlari e’tirof etiladi, kerakli uslubiy tavsiyalar beriladi.

“Ustoz-shogird” maktabi shu ketma-ketlikda davom etadi, natijada tajribali o‘qituvchilar soni ko‘payib, ta’lim-tarbiya sifati yaxshilanib boradi.





“Ustoz-shogird” maktabining ish faoliyati fan metodbirlashmasida muhokama qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilab boriladi, yuksak natijaga erishgan ustozlar rag‘batlantiriladi



- E’tiborlaringiz uchun rahmat!

- rasmiy veb-sayt
- http://www.sammoi.uz

- maxsus rasmiy telegram kanal
- https://t.me/sammohm